

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

BOZOROV ULUG‘BEK SAYIDMURODOVICH

**TALABA YOSHLARNI KASBIY-HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi (paxta) ta’lim yo‘nalishi misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Bozorov Ulug‘bek Sayidmurodovich

Talaba yoshlarni kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi (paxta) ta‘lim yo‘nalishi misolida) 3

Бозоров Улугбек Сайидмуродович

Совершенствование методики развития профессионально-правовых компетенций студенческой молодежи (на примере направления образования Технология предварительной обработки натуральных волокон (хлопка)) 27

Bozorov Ulugbek Sayidmurodovich

Improving the methodology for the development of professional and legal competencies of students (Technology of pretreatment of natural fibers (cotton) on the example of an educational direction)..... 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 55

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

BOZOROV ULUG‘BEK SAYIDMURODOVICH

TALABA YOSHLARNI KASBIY-HUQUQIY KOMPETENIYALARINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi (paxta) ta’lim yo‘nalishi misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Ped4467 raqam bilan ro'yhatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<http://www.ttyesi.uz>) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Pirnazarov G'ulomjon Nurboboyevich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponenlar: Hamrayev G'ofur Hasanovich
pedagogika fanlari doktori (DSc)

Kadirov Xayot Sharipovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi DSc03./30.12.2019.T.08.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil 26 - mart soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel.:(+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17; e-mail: Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 222-xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№225 raqam bilan ro'yhatga olingan). Manzil:100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel.:(+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 11 - mart kuni tarqatildi.
(2025-yil "11" martdagi 235 raqamli reyestr bayonnomasi).



X.H.Kamilova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

A.Z.Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

J.G.Xalmuratova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy seminar raisi, p.f.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon oliy ta'lim muassasalarida ta'limni rivojlantirish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar, ilmiy loyihalar amalga oshirilib kelinmoqda, ayniqsa, raqobatbardosh muhandis texnologlarni tayyorlashning mazmuni va ilmiy metodik negizini, kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi. Shu nuqtai nazardan oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning yangicha samarali yo'nalishi hamda ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish samarali ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan davlatlar oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan kasbiy va huquqiy-pedagogik ta'lim jarayoni zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanib o'qitish metodikasini yanada takomillashtirishga jiddiy e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatmoqda.

Jahonda ilg'or xorijiy tajribalarga tayanib, talaba yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini fan va texnologiya yutuqlari bilan hamohang tarzda ilmiy tahlil qilish va metodikasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada raqobat va ijtimoiy-huquqiy nizolarning mutatsiyalashib borishi oqibatida oliy ta'lim muassasalarida o'z kasbiy huquq va erkinliklari hamda majburiyatlarini yaxshi biladigan, yuksak kasbiy-huquqiy madaniyatli, kompetent, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, shuningdek, o'z kasbiy va huquqiy majburiyatlarini ado etishga vijdonan, sidqidildan yondashadigan mutaxassislar tayyorlash ustuvor vazifa sifatida ilgari surilmoqda. Ushbu vazifalarni hal qilishda mutaxassislarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirishni ilmiy va metodologik takomillashtirish, pedagogik ta'sirchan usul, shakl va omillarini tahlil etish, shuningdek, huquqiy xabardorlikni oshirishning ta'sirchan mexanizmlarining ilmiy masalalarini tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda aholining katta qismini yoshlar tashkil etishi ta'lim tizimida har tomonlama yetuk va ijodkor, bugungi kun, real bozor iqtisodiyoti talablariga mos, raqobatbardosh va ilg'or xalqaro standartlarga javob beradigan, kasbiy-huquqiy madaniyati yuksak shaxsni tarbiyalash masalasini ta'lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida amalga oshirish ehtiyojini yuzaga keltirdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiyasida "aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini targ'ib qilish" va 2022-2026-yillarda mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining birinchi ustuvor yo'nalishida "Aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va ta'lim tashkilotlari bilan o'zaro samarali hamkorligini yo'lga qo'yish" ustuvor vazifalar sifatida belgilandi. Oliy ta'limni rivojlantirish, modernizatsiyalash bilan birga talaba yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish va yosh kadrlarni ma'naviy, kasbiy-huquqiy tarbiyalash yangicha tafakkur rivojining muhim omiliga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son

“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”, 2020-yil 8- oktabrdagi 5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida” farmonlari, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 23-yanvardagi PQ-15-son “Savdo-sanoat palatasi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 7-avgustdagi 466-son “O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta‘lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” qarorlari hamda mazkur faoliyat sohasiga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlan-tirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. ”Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlari X.A.Mamatqulov, Y.M.Asadov, U.Sh.Begimqulov, O.Musurmanova, R.X.Djurayev, A.X.Maxmudov, N.A.Muslimov, B.B.Ma‘murov, M.Mirsoliyeva, R.Safarova, M.Usmonboyeva, B.X.Xodjayev va boshqalar tomonidan “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarining mazmun-mohiyatini o‘rganish va tahlil qilish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Talaba yoshlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning ayrim jihatlari pedagog olimlar N.Yusupova, Sh.Qo‘qonboyeva, A.Jo‘rayev, F.Umarov, N.Asilbekov, yoshlarning huquqiy ong va huquqiy madaniyati, kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari X.Mamatov, O.Nasriddinova, X.Odilqoriyev, G‘.Pirnazarov, Y.Sadikova, R.Turdiyeva, A.Xamrayev kabi huquqshunos va pedagog olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Talaba-yoshlarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash, ularda komil insonga xos ma‘naviy madaniyat, mafkuraviy immunitetni shakllantirish, oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim-tarbiya jarayonlari samaradorligini oshirish bo‘yicha G.Ibragimova, Z.Xojageldiyeva, Z.Ismoilova, M.Quronov, N.Yegamberdiyeva, Sh.Qurbonov, M.Mahmutova, X.Ibragimov, Sh.Abdullayeva, Sh.Akramova, Q.Shonazarov va boshq. ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Mustaqil Davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlari Ye.Agranovskaya,

R.Bayniyazov, N.Voplenko, O.Demko, Y.Dmitriyev, N.Keyzerov, A.Malko, N.Matuzov, V.Salnikov, A. Veyl, D.Iston, Dj.Dennis, S.Palonskiy, L.Matveyev, G.Matveyev va boshqalarning ishlarida muammoning ayrim jihatlari tadqiq etilgan.

Xorijlik huquqshunos olimlar Dj.Piaje, Dj.Kevin, Dj.Torni-Purta, S.Stevensonning ilmiy ishlarida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish masalalari o'rganilgan.

Muammoga doir ilmiy ishlar va adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, mazkur ishlarda talaba-yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ishlarini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan darslarni metodik loyihalash, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va talaba-yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik va metodologik tadqiq etilmagan, bu mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini belgilab beradi.

Tadqiqotning maqsadi Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi (paxta) ta'lim yo'nalishi misolida talaba-yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi (paxta) ta'lim yo'nalishi talaba-yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning amaldagi holatini tahlil qilish va o'ziga xos huquqiy-pedagogik yo'nalishlarini belgilash;

yoshlarni kasbiy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasining "huquqiy savodxonlik", "huquqiy munosabat", "huquqiy madaniyat"ga asoslangan piramidasiga "kasbiy-huquqiy kompetensiya" darajasini kiritish orqali kasbiy-huquqiy kompetensiyalarni rivojlantirish modelini takomillashtirish;

rivojlangan davlatlar tajribasida sinovdan o'tgan interaktiv huquqiy-pedagogik texnologiyalar "Legal clinic"(Yuridik klinika), "Street law" (Jonli huquq), HMV (Huquqiy madaniyat volonterlari) texnologiyalari asosida talaba-yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik tuzilmasini ishlab chiqish va uni amalda joriy etish;

kompleks yondashuv asosida Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi (paxta) ta'lim yo'nalishi talaba-yoshlarining kasbiy-huquqiy kompetensiyalari rivojlanganlik darajasini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlash hamda eksperimental tadqiqot natijalari asosida ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi (paxta) ta'lim yo'nalishi talaba-yoshlarining kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Namangan to'qimachilik sanoati instituti, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoati instituti va Jizzax politexnika institutidan 540 nafar respondent-talaba jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlarining kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning mazmuni, shakllari, modeli, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy (tahliliy-statistik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, modellashtirish), diagnostik (suhbat, so‘rovnoma, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik (ma‘lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshqalar) metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi (paxta) ta‘lim yo‘nalishi talaba-yoshlarining kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning deontologik negizlari, integratsiyasi va komponentlari o‘ziga xos huquqiy-pedagogik tamoyillar asosida tavsiflangan;

talaba-yoshlarni kasbiy-huquqiy kompetensiyasi komponentlari (“huquqiy munosabat”, “huquqiy madaniyat”, “ijtimoiy kompetensiya”)ga “kasbiy huquqiy kompetensiya” tushunchasini kiritish va uning modeli takomillashtirilgan;

“Legal clinic”, “Street law”, HMV texnologiyalari asosida talaba-yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning didaktik, pedagogik, psixologik hamda pragmatik asoslari, tashkiliy-pedagogik tizimi, metodik ta‘minotini ishlab chiqilgan;

tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi (paxta) ta‘lim yo‘nalishi talaba-yoshlarining kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda baholash mezonlari va indikatorlari uzviylik va uzluksizlik asosida aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talaba-yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalar aniqlanib, bu boradagi ishlarni modernizatsiyalash prinsiplari ishlab chiqilgan;

yoshlarni kasbiy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasiga asoslangan piramidaga “kasbiy-huquqiy kompetensiya” darajasini kiritish orqali kasbiy-huquqiy kompetensiyalarni rivojlantirish modeli ishlab chiqilgan;

talaba-yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda dunyoning rivojlangan davlatlari tajribasida sinovdan o‘tgan “Legal clinic”, “Street law”, HMV kabi interaktiv huquqiy-pedagogik texnologiyalar joriy qilingan;

talabalar kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari va metodikasi takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi oliy va dual ta‘limda talaba-yoshlar kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini takomillashtirishga doir ilmiy-nazariy yondashuvlar, qarashlar va g‘oyalar, ilg‘or xorijiy tajribalar, o‘zaro bir-birini to‘ldiradigan tadqiqot usullari, metodik ta‘minot amaliyotga joriy etilgani, tajriba-sinov ishlari reprezentativligi, matematik-statistik tahlil natijalari tadqiqot samaradorligini tasdiqlagani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati texnik oliy ta‘lim muassasalari talaba-yoshlarining kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning tarixiy, xorijiy usullari va mexanizmini aniqlash imkonini bergani hamda bu boradagi rivojlangan davlatlari tajribasida sinovdan o‘tgan interaktiv huquqiy-pedagogik texnologiyalar asosida talaba-yoshlar kasbiy

kompetensiyalarini oshirish jarayonini modernizatsiyalashtirish uchun zarur shart-sharoitlar ilmiy asoslangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati talaba-yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli va metodikasini takomillashtirishda mental xususiyatlarimizga modifikatsiyalangan “Legal clinic”, “Street law”, H MV kabi zamonaviy interaktiv huquqiy-pedagogik texnologiyalar va shart-sharoitlardan mazkur yo‘nalishdagi faoliyatni modernizatsiyalashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talaba-yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini oshirish yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy takliflar asosida:

tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi (paxta) ta‘lim yo‘nalishi talaba-yoshlarining kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning deontologik negizlari, integratsiyasi va komponentlari o‘ziga xos huquqiy-pedagogik tamoyillar asosida tavsiflashga doir taklif va tavsiyalardan 2017-2020-yillarda bajarilgan A1-XT-0-92997 raqamli “Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg‘unligi asosida ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari” mavzusidagi fundamental loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika Fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2024 yil 17 fevraldagi 03/02-192-son ma‘lumotnomasi). Natijada, mazkur tizimda talaba-yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini oshirish bilan bog‘liq ishlar jarayoni ilmiy-amaliy manbalar bilan boyitilishiga xizmat qilgan;

“Legal clinic”, “Street law”, H MV texnologiyalari asosida talaba-yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning didaktik, pedagogik, psixologik hamda pragmatik asoslari, tashkiliy-pedagogik tizimi, metodik ta‘minotini ishlab chiqilganligiga oid taklif va tavsiyalaridan “Umumiy pedagogika” darsligida foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 22-iyuldagi 11-05-3788/04-sonli dalolatnomasi.). Natijada, oliy ta‘lim muassasalari o‘quv jaryonida talaba-yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ishlarini samarali tashkil etishga yo‘naltirilgan darslarni metodik loyihalash, zamonoviy texnologiyalarni va talaba yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik va metodologik tarzida yangicha yondashilgan huquqiy targ‘ibot yo‘nalishini yanada takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 17 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 33 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, shundan 7 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar va ilovadan iborat. Tadqiqotning hajmi 157 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yoʻnalishlariga muvofiqligi, tadqiq etilayotgan muammoning oʻrganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bogʻliqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obʼekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati asoslangan.

Dissertatsiyaning **“Talaba-yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida talaba-yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik muammosi va joriy holati, Oʻzbekistonda yoshlar huquqiy kompetensiyalarini oshirishning tarixiy-maʼrifiy negizlari, fuqarolik jamiyatini barpo etishda yoshlar kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari va kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning deontologik negizlari va tabiiy talalarni dastlabki ishlash texnologiyasi (paxta) taʼlim yoʻnalishi talablarining kasbiy-huquqiy kompetensiyalarining mavjud holati va ularning oshirish boʻyicha ilmiy jihatdan tahlil qilinib, kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini ijtimoiy-siyosiy asosi sifatidagi roli va oʻrni ochib berilgan.

Taʼlimning eng muhim vazifalaridan biri – talaba-yoshlarni hayotga tayyorlash, muayyan kasb sohibi, yetuk mutaxassis sifatida shakllantirish hisoblanadi. Bunda etishib chiqayotgan har bir mutaxassis kasbiy bilim va malakaga ega boʻlishi, shu bilan birga ularda kasbga doir huquqiy kompetensiya ham hosil boʻlishi zarur. Bugun demokratik, huquqiy jamiyat qurish yoʻlidan borilayotgan bir paytda har bir kasb egasi oʻz haq-huquqlari va majburiyatlari, burchlarini mukammal bilishi zarur. Oʻzbek xalqlarining maʼnaviyati uzoq tarixga ega. Bizning maʼnaviy merosimiz nihoyatda boy va mustaxkam, unda ming yildan oshiq maʼnaviy rivojlanishning yutuqlari ifodalangan. Maʼnaviyatimiz oʻz zaminida, qolaversa, umuminsoniy maʼnaviyat yutugʻlari taʼsirida shakllanadi va kamol topadi. Oʻz navbatida oʻzbek xalqi maʼnaviyati boshqa xalqlar maʼnaviyatiga, umumjahon madaniyati ravnaqida katta ijobiy taʼsir oʻtkazdi. Yevropa olimlarining taʼkidlashicha, Yevropa sharqdan savodxonlikni, fanlar va ularni egallash usullarini, dexqonchilik va chorvachilik ilmlarini, dengizda suzish hunarini, harbiy texnikani, tasviriy sanʼat va meʼmorchilik sirlarini, sheʼriy sanʼat jozibasini oʻrgangan, ammo bugungi kunda yoshlar orasida oʻz tilini, tarixini yaxshi bilmaslik, eng muhimi, haq-huquqlari, vatan oldidagi burch va majburiyatlarini bilmaslik, tanlagan kasbiga doir huquqiy meʼyorlarni anglamaslik holatlari koʻp uchraydi.

“Kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari mazmunini mualliflik taʼriflari tahlili asosida ushbu tadqiqot doirasida kompetensiyani maʼlum bir kasbiy

faoliyatni amalga oshirishga tayyorlik sifatida, kompetentlikni esa – kasbiy faoliyatda muvoffaqiyatli amalga oshirilgan kompetensiya sifatida ko‘rib chiqamiz.

N.A.Muslimov va O.A.Qo‘ysinovning fikricha, kompetentlikning birinchi tarkibiy qismi me‘yoriy hujjatlarda belgilab qo‘yilgan ta‘lim natijalaridan iborat. Ikkinchi tarkibiy qismini ijtimoiy talablar va ehtiyojlar belgilaydi, bu qism jamiyatning rivojlanishiga mutanosib ravishda universal, o‘zgaruvchan bo‘lib, o‘zgartirishlar va tuzatishlar kiritilib turiladi.

“Kasbiy kompetensiya” tushunchasi mazmunining mavjud ta‘riflari tahlili ko‘rsatadiki, kasbiy kompetensiya kasbiy faoliyatida amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar hamda insonning shaxsiy sifatlar yig‘indisidir.

O‘tkazilgan tahlillar oliy ta‘lim tizimida talaba-yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida bir qator texnologik muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Bular:

1-jadval

Kasbiy-huquqiy kompetensiyalarni rivojlantirish bilan bog‘liq muammolar

T.r.	Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish bilan bog‘liq muammolar	Huquqiy kompetensiyani rivojlantirish bilan bog‘liq muammolar
1.	Talablarning fan bo‘yicha ma‘ruza mashg‘ulotlari soati nisbatan ko‘pligi	Tanlangan kasbga bog‘liq holda uning huquqiy tomonlari tushuntirilmasligi
2.	Amaliy mashg‘ulotlar uchun zarur sharoit yaratilmagani	Huquqiy savodxonlikning shakllanmagani
3.	Oliy ta‘lim muassasasi va amaliyot o‘taladigan tashkilot o‘rtasida tizimli hamkorlik yo‘lga qo‘yilmagani	Shaxsiy va kasbga doir huquqiy me‘yorlarni bilmaslik
4.	O‘quv rejada kasbga doir fanlar miqdorining kamligi, ortiqcha umumiy majburiy fanlarning mavjudligi	Talabaning mutaxassis sifatida ish faoliyatida qanday majburiyat va huquqlari mavjudligini yetarli bilmasligi
5.	O‘quv-metodik ta‘minotning yetarli emasligi	Talabalarda huquqiy bilimning etishmasligi

Kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradigan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish uchun bir qator pedagogik sharoitlar, jumladan, huquqiy ta‘limning uzluksizligi, oliy ta‘lim muassasalari talablarining huquqiy kompetensiyasini rivojlantirish imkonini beruvchi ilmiy-metodik ta‘minot, mustaqil faoliyat zarur.

Dissertatsiyaning “**Talaba-yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi**” deb nomlangan ikkinchi bobida Texnika oliy ta‘lim muassasalari talabalarida ma‘naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishning konseptual va indikativ modellari va tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi (paxta) ta‘lim yo‘nalishi talabalarini kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish shart-

sharoitlar, texnik oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari va ularning imkoniyatlari tadqiq qilingan.

Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy-uslubiy muammolarini va kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga zamonaviy talablarning tahlili, bu sohada kasbiy-huquqiy kompetensiyalari rivojlanishiga ta'sir etuvchi bir qator asosiy omillarni ajratib tahlil qilish imkoniyatini ochib berdi:

dars davomida talabalarining o'quv jarayoni subyekti sifatida shakllanishlarini ta'minlash;

talaba shaxsiga yo'naltirilgan o'zaro munosabat vaziyatini vujudga keltirish;


talabalarining kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini faollashtirishda fanlar integratsiyasini ta'minlash;

talabalarining kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida, ularni qiziqarli vaziyatlarga jalb etish kabilar.

Talabalarining kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda etnopedagogik omillardan foydalanish sifatida indikativ (vositachi) modellardan foydalanish muhim bo'lib hisoblanadi.

2-jadval

Talabalarining kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini shakllantirishning indikativ (vositachi) modeli



Talabalarining kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun didaktik metodlardan tashqari, tarbiyaviy metodlardan ham foydalanish samarali natija berishi, kuzatuvlarimizdan aniqlandi. Bular: ishontirish; mashq qildirish va mustaqil ishlash; kuzatish; rag'batlantirish; o'mak ko'rsatish va shaxsiy namuna.

**Talabalarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda
zamonaviy yondashuvlarning asosiy usullari**

O'quv jarayonining bosqichlari	Asosiy usullar		
	Ta'lim berishni nazoratga olish	Motivatsiyani rivojlantirish	
Qiziqish uyg'otish	Xabar berish, axborot almashinish, himoya qilish, qaror qabul qilish	Idrok	Da'vat yetish
Qabul qilish	Tushuntirish, namoyish qilish	Stimul	Rag'bat
Tushunish	Kuzatish, suhbat, savollar ko'rsatmalar	Namuna	
O'zlashtirish	Nazorat qilish, baholash	G'oyaviy patternlardan foydalanish	
Nazorat qilish (Tekshirish)	Suhbat, yo'naltiruvchi savollar	Chelenjlar, ijtimoiy roliklar	
Rejalashtirish	Suhbat o'tkazish, yo'naltirilgan savollar berish	Tarbiyaviy tadbirlardagi faollik	
Baholash	Suhbat o'tkazish, yo'naltirilgan savollar berish	Ma'naviy-axloqiy yo'nalganlik	

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, talabalarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagog vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

talabalarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zarur sharoit yaratish, ularni jiplashtirish, jamoa a'zolarini obyektiv vaziyatni baholash, fikrlash (mulohaza qilish), izchillik bilan, asoslangan, qat'iy mulohaza qilishga o'rgatish;

jamoa a'zolarini ularning fikrlari va ta'kidlari to'g'riligini mustaqil ravishda isbotlash va asoslay olish malakalarini rivojlantirish va shakllantirish;

abstraksiyalash va aniqlashtirishga, muammoni hal qilish yo'llarini qidira olishga, o'zining fikri va boshqalarning fikrini tekshira olish va baholay olishga, tezda fikrlay olishga o'rgatish.


Talabalarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda quyidagi didaktik ish usullariga e'tibor berish lozim:

yoshlar bilan o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarga bo'lgan munosabatiga (ijobiy, salbiy, befarqlik);

yoshlarning kattalar, o'z tengdoshlari bilan axloqiy muomala va munosabatlariga;

o'quv maskanlarida tashkil etilgan qonun-qoidalarga munosabat va ularga amal qilish;

o'quv muassasasidagi ijtimoiy fikrga bo'ysunuvchanlik.



1-rasm. Talabalar kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli

Tadqiqot davrida ilg'or pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlariga tayangan holda talabalarda tabiiy talablarni dastlabki ishlash texnologiyasi faniga oid amaliy ko'nikma va malakalarni boyitish, shuningdek, ularda kasbiy-huquqiy tayyorgarlik darajalarini shakllantirishga imkon beruvchi topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi.

Dissertatsiyaning "Talaba-yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini

rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari samaradorligi” deb nomlangan uchinchi bobida talaba-yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari va Tajriba-sinov ishlarining matematik-statistik tahlili va samaradorligi natijalari tahlil qilinadi.

Tajriba-tadqiqot ishlari 2020-2024-yillarda tashkil etilib, talabalarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish modelini amaliyotga tatbiq qilishga yo'naltirildi. Dasturda diagnostik va rivojlantiruvchi qadamlar hisobga olindi. Tadqiqot o'tkazilishi mo'ljallangan tajriba maydonlari belgilandi. Respublikamizning texnika oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talaba-yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tadqiqotda jami 540 nafar: Namangan to'qimachilik sanoati institutidan 184 nafar, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutidan 206 nafar va Jizzax politexnika instituti Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi (paxta), Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan 150 nafar talaba ishtirok etgan. Respondentlar tarkibida talaba-qizlar 38 foiz, talaba-yigitlar 62 foizni tashkil etgan.

Tadqiqot dasturi uch bosqichda ta'minlandi.

I bosqichda tajriba dasturi bo'yicha tashkil qilingan bu bosqichda tadqiqot metodlari: diagnostik suhbat, bevosita kuzatish, anketa so'rovnomasi, test sinovi, o'zini o'zi baholashdan foydalanildi. Tajriba-tadqiqot yeksperiment o'tkazilishi lozim bo'lgan klassik uslubda tajribada qatnashayotgan guruhlarni tajriba va nazorat guruhiga bo'lgan holatda tashkil qilindi.

II bosqichda Talaba-yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish darajasini ko'rsatuvchi mezonlar saralandi va tajriba mashg'ulotlarida qo'llaniladigan metodlar tizimlashtirildi.

III bosqichda talaba-yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish tajribaviy metodikasi. Ushbu bosqichda talabalar quyidagi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarda tahsil olishdi:

suhbatlar, mini-ma'ruzalar, diskussiyalar jarayonida talaba-yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalari rivojlantirildi;

ochiq ishchan va shaxslararo muomala yordamida mashg'ulotlar ishtirokchilari o'rtasida erkin, majbur etilmagan ijodiy muhit va ochiq, bir-biriga ishonchli bo'lgan muloqot muhiti yaratildi; takliflarga diqqat bilan munosabat bildirildi;

talabalarning noodatiy savollariga, noan'anaviy rivojlantirish nuqtayi nazaridan yondashildi.

Tajriba-sinovi davrida OTM o'quv jarayoniga kiritilgan asosiy o'zgartirish – talabalarda kasbiy-huquqiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan indikatorlar va didaktik model' auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar mazmuniga singdirildi. Shuningdek, pedagogik texnologiyalar, metodlar, materiallar va vositalarning tanlanishi bilan tavsiflandi.

Tajriba mashg'ulotlarida interfaol didaktik metodlar: “Rezyume”, “Keys”, “Legal clinic”, “Street law”, HMV huquqiy-pedagogik texnologiyalar va tarbiyaviy ahamiyatga molik: ishontirish, rag'bat, stimuly, xulqni idora qilish kabi metodlardan foydalanildi.

**Tajriba mashg'ulotlarida foydalanilgan metodlarning samaradorligi
(foizda; 2020-2023-y)**

Metodlar	Tanlab olingan metodlarning samarasini ta'minlovchi pedagogik shakllar			
	Tadbirlar	Didaktik tizimlar (auditoriya mashg'uloti)	Auditoriyadan tashqari mashg'ulot	Debat
Namuna	++++	++++	+++	+++
Rag'bat	+++	++	+++	+++
Ishontirish	+++	+++	+++	+++
Inontirish	+++	+++	+++	+
Irodani safarbar yetish	+	+	++	+
Stimul	+++	++	+++	+++
Disput (dumaloq stol)	+	++	++	+++
Izoh	<i>+30% gacha metodning samarasi 30% +-60% gacha metodning samarasi +++-90% gacha metodning samarasi pedagogik maqsadlarni oqlaydi</i>			
	<i>Sinaluvchilar orasida talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishda Namuna, Rag'bat, Ishontirish metodlari samarali, deb ko'rsatildi</i>			

Kasbiy-huquqiy kompetensiyalarning kelgusi faoliyatimdagi ahamiyatini qanday tushunaman?

(talaba-yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalari rivojlanganlik darajasini aniqlash bo'yicha muallif metodikasi)

Maqsad: talaba-yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalari rivojlanganlik darajasini pedagogik diagnostika asosida aniqlash.

Diagnostika bosqichlari:

1. Anketa so'rovlari vositasida talaba-yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalari rivojlanganlik darajasini aniqlash (20-30 daqiqa).

2. Esse yozish (10 daqiqa). Talaba-yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalari rivojlanganlik darajasini tahlil qilish.

3. Talabalarga bir necha variantlarda: "Huquqning mohiyati va uning xususiyatlari" (1-variant), "Shaxsiy rivojlanishda huquqiy me'zonlarining namoyon bo'lishi" (2-variant), "kasbiy-huquqiy tushuncha va men uni qanday tushunaman?" (3-variant) mavzularida esse yozish topshirig'ini bajarish vositasida baholash (1 dan 10 ballgacha).

4. Interpretatsiya.

Olingan natijalar sarhisobi.

Talabalarining yozma javoblari kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini quyidagi qirralarini yorituvchi komponentlar bo'yicha tahlil qilinadi:

1) kasbiy-huquqlarni bilishga qiziqishning mavjudligi;

- 2) o'z kasbiga fidoiylilik tuyg'ularining aks etishi;
- 3) o'z xalqining qudratli ildizlari bilan faxrlanish hissining shakllanganlik darajasi;
- 4) jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi islohotlar; qiyinchiliklar, ularni bartaraf etish yo'llari to'g'risida xabardorlik;
- 5) O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlar haqida ma'lumotga ega bo'lish;
- 6) huquqiy normalar mohiyati va uning xususiyatlari, shaxsiy va jamoaviy tarbiyalanganlik haqida axborotga egalik;
- 7) jamiyat ravnaqiga to'sqinlik qiluvchi destruktiv g'oyalardan himoyalaniish hissining shakllangani;
- 8) tolerantlik va fidoiylilik ijtimoiy faoliyat manbai sifatida;
- 9) milliy g'urur hissining aks etishi;
- 10) huquqiy qadriyatlarning millatlararo totuvlikdagi mohiyatini tushunish;
- 11) mafkuraviy immunitetga egalik;
- 12) huquqiy qadriyatlarni kasbiy faoliyatga singdirishning deontologik samarasi.

Ushbu ko'rsatkichlarning har biri quyidagi shkala bo'yicha 1, 2, 3, 4, 5 ball bilan baholanishi mo'ljallandi:

5-jadval


Talaba-yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalari rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun tuzilgan matritsa

Talaba-yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini aks yettiruvchi komponentlar tartib raqami (TKHK)	Esse uchun mo'ljallangan ballar	Anketa savollari uchun mo'ljallangan ballar
1- TKHK	1 balldan 5 ballgacha	1 dan 3 ballgacha
2- TKHK	1 balldan 5 ballgacha	1 dan 4 ballgacha
3- TKHK	1 balldan 5 ballgacha	1 dan 4 ballgacha
4- TKHK	1 balldan 5 ballgacha	1 dan 2 ballgacha
5- TKHK	1 balldan 5 ballgacha	1 dan 2 ballgacha
6- TKHK	1 balldan 5 ballgacha	1 dan 2 ballgacha
7- TKHK	1 balldan 5 ballgacha	1 dan 3 ballgacha
8- TKHK	1 balldan 5 ballgacha	1 dan 2 ballgacha
9- TKHK	1 balldan 5 ballgacha	1 dan 2 ballgacha
10- TKHK	1 balldan 5 ballgacha	1 dan 4 ballgacha
Jami	50	40

Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda ham Talaba-yoshlarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlanganlik ko'rsatkichlarini diagnostika qilishga mo'ljallangan metodik topshiriqlar ishlab chiqildi. Masalan, "Talabalarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlanganini diagnostika qilish", "Talabalarda faol fuqarolik pozitsiyalarini aniqlash" kabi diagnostik topshiriqlarning maqsadi sifatida: talabalarning fuqaroviy burchini, sohaga oid qonun-qoidalarni anglashi; ularga amal qilishi, ijtimoiy-siyosiy tadbirlarda shaxsan ishtirok etishi; oila, davlat, jamiyat manfaatlarini o'zining manfaatlaridan ustun quya olishi kabi xislatlarini o'rganishga qaratildi.

6-jadval


Ta'lim muassasasi nomi	Ko'rsatkich	Tajriba guruhlarida				Nazorat guruhlarida			
		Tajriba boshida talabalar soni	%	Tajriba oxirida talabalar soni	%	Tajriba boshida talabalar soni	%	Tajriba oxirida talabalar soni	%
Namangan to'qimachilik sanoati instituti	Yuqori	19	20,6	28	30,4	18	19,5	19	20,6
	O'rta	21	22,8	31	33,6	21	22,8	24	26,0
	Qoniqarli	24	26,0	18	19,5	23	25,1	21	22,8
	Qoniqarsiz	28	30,4	15	16,3	30	32,6	28	30,4



2-rasm. Namangan to'qimachilik sanoati institutida o'tkazilgan tajriba-sinov natijalarining diagrammasi

7-jadval


Ta'lim muassasasi nomi	Ko'rsatkich	Tajriba guruhlarida				Nazorat guruhlarida			
		Tajriba boshida talabalar soni	%	Tajriba oxirida talabalar soni	%	Tajriba boshida talabalar soni	%	Tajriba oxirida talabalar soni	%
Jizzax politexnika instituti	Yuqori	11	13,7	21	26,2	10	14,2	11	15,7
	O'rta	19	23,7	26	32,5	17	22,6	16	22,8
	Qoniqarli	23	28,7	19	23,7	20	34,9	21	30,1
	Qoniqarsiz	27	33,7	14	17,5	23	28,3	22	31,4



3-rasm. Jizzax politexnika institutida o'tkazilgan tajriba-sinov natijalarining diagrammasi


8-jadval

Ta'lim muassasasi nomi	Ko'rsatkich	Tajriba guruhlarida				Nazorat guruhlarida			
		Tajriba boshida talabalar soni	%	Tajriba oxirida talabalar soni	%	Tajriba boshida talabalar soni	%	Tajriba oxirida talabalar soni	%
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti	Yuqori	19	14,8	26	25,3	18	17,4	19	18,4
	O'rta	23	22,6	31	30,1	24	23,3	23	22,3
	Qoniqarli	31	28,7	27	26,2	29	28,1	27	26,2
	Qoniqarsiz	30	33,9	19	18,4	32	31,1	34	33,1



4-rasm. Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida o'tkazilgan tajriba-sinov natijalarining diagrammasi

Ta'lim muassasasi nomi	Ko'rsatkichi	Tajriba-sinov guruhlarida				Nazorat guruhlarida			
		Tajriba boshida talabalar soni	%	Tajriba oxirida talabalar soni	%	Tajriba boshida talabalar soni	%	Tajriba oxirida talabalar soni	%
Barcha OTMLarida	Yuqori	49	18,8	75	27,2	46	17,3	49	18,4
	O'rta	63	22,9	88	32,1	62	23,3	63	23,7
	Qoniqarli	78	28,3	64	23,2	72	27,1	69	26,2
	Qoniqarsiz	85	30,9	48	17,5	85	32,1	84	31,7



5-rasm. Tajriba-sinov o'tkazilgan oliy ta'lim muassasalari bo'yicha umumiy natijalar diagrammasi

O'tkazilgan tajriba-sinov natijalariga asoslangan holda talabalarning tajriba va nazorat guruhlaridagi o'rtacha o'zlashtirishlarini Studentning matematik-statistika metodi yordamida tahlil qildik.

Tajriba guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari va talabalar sonini mos ravishda X_i va n_i lar shuningdek nazorat guruhidagini esa Y_j va m_j lar orqali belgilab olib, quyidagi statistik guruhlangan variatsion qatorlarga ega bo'lamiz, shuningdek, yuqori ko'rsatkichni 5 ball (86 % dan yuqori), o'rta ko'rsatkichni 4 ball (71 % dan 85 % gacha), qoniqarli ko'rsatkichni 3 ball (55 % dan 70 % gacha) va qoniqarsiz ko'rsatkichni 2 ball (54 % va undan kam) bilan belgilaymiz.

Statistik hisob-kitoblarni bajarishda nazorat va o'lchov materiallariga muvofiq ballarda ifodalangan nazorat va tajriba guruhi ishtirokchilarining kasbiy-huquqiy kompetensiyalari rivojlanganlik darajasini baholash natijalaridan foydalanildi.

Student statistikasi orqali tekshiramiz.

Bu ma'lumotlar asosida quyidagi belgilanishlar kiritildi:

Belgilanishlar:

x_i – tajriba guruhiga mos keladigan baholar, $i = 1 \dots 4$;

y_i – nazorat guruhiiga mos keluvchi baholar;

\bar{x} va \bar{y} – tajriba va nazorat guruhlari uchun mos keladigan o‘rtacha arifmetik qiymatlar.

$$\bar{x} = \frac{\sum x_i n_i}{n}; \quad \bar{y} = \frac{\sum y_i m_i}{m} \quad (1)$$

Bu yerda: $x_i, y_i = 2, 3, 4, 5$ qiymatli baholarni mos ravishda qabul qiladi.

n, m – tajriba va nazorat guruhiidagi talabalar soni.

m_i, n_i – mos baholarga nisbatan talabalar soni.

O‘quv jarayoni samaradorligini baholovchi o‘rtacha qiymat tajriba va nazorat guruhlari talabalari baholarining o‘rtacha arifmetik qiymatlari nisbatidir, ya’ni samaradorlik koeffitsiyenti quyidagicha olindi:

$$\eta = \frac{\bar{x}}{\bar{y}} \quad (2)$$

O‘rtacha kvadratik og‘ish kattaliklari:

$$S_x^2 = \frac{1}{n} \sum n_i \cdot (x_i - \bar{x})^2; \quad S_y^2 = \frac{1}{m} \sum m_i \cdot (y_i - \bar{y})^2 \quad (3)$$

Standart og‘ish kattaliklari:

$$S_x = \sqrt{S_x^2}; \quad S_y = \sqrt{S_y^2} \quad (4)$$

O‘rtacha qiymatlarni aniqlash ko‘rsatkichi:

